
O'zbekiston Respublikasida aholini ro'yxatga olishni o'tkazishga ko'maklashish bo'yicha respublika komissiyasi vakolatlariga nimalar kiradi?

O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 16-martdagi "Aholini ro'yxatga olish to'g'risida"gi O'RQ- 611-sonli qonunining 14-moddasiga asosan O'zbekiston Respublikasida aholini ro'yxatga olishni o'tkazishga ko'maklashish bo'yicha respublika komissiyasi vakolatlari quyidagilardan iborat: aholini ro'yxatga olishga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish bilan bog'liq chora-tadbirlar o'z vaqtida hamda sifatli bajarilishini ta'minlaydi; aholini ro'yxatga olishga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazishga doir ishlar jarayonining muvofiqlashtirilishi va monitoringini amalga oshiradi; aholini ro'yxatga olish natijalarining tahlilini o'tkazadi; aholini ro'yxatga olishga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazishni moliyalashtirish, aholini ro'yxatga olish materiallariga ishlov berishni tashkil etish va uning yakuniy natijalarini e'lon qilish masalalariga doir takliflarni ko'rib chiqadi; aholini ro'yxatga olishga tayyorgarlik ko'rish hamda uni o'tkazishda ishtirok etish uchun jismoniy va yuridik shaxslarni ularning ishiga haq to'lash masalalarini hal qilgan holda jalb etishni tashkil etadi; xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik qilishni amalga oshirish bo'yicha takliflar ishlab chiqadi. O'zbekiston Respublikasida aholini ro'yxatga olishni o'tkazishga ko'maklashish bo'yicha respublika komissiyasini shakllantirish va uning faoliyatini tashkil etish tartibi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan belgilanadi. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi O'zbekiston Respublikasida aholini ro'yxatga olishni o'tkazishga ko'maklashish bo'yicha respublika komissiyasining ishchi organi hisoblanadi.

A.Arapov,

Yozyovon tumani statistika bo'limi boshlig'i.

2022-05-19 10:06:50